

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

Jild 3, Son 7/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Холлиев Азизбек Гўзалович</i> РОССИЯ-АМЕРИКА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН (XVIII АСР ЎРТАЛАРИ – XIX АСР БИРИНЧИ ЯРМИ)	7-13
<i>Юлдашев Сайданварбек Баҳромжон ўғли</i> ФАРГОНА СОМОНИЙЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР	14-25
<i>Бобоҷонов Шавкат Улуғбековиҷ</i> ФЕНОМЕН БАҲАУДДИНА НАҚШБАНДИ В ПАЛОМНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА	26-31
<i>Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna</i> ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI	32-39
<i>Isarov Umidulla Isar o'g'li</i> “ILK KO'CHMANCHILAR” ATAMASI MUAMMOSI	40-45
<i>Исламов Шарифжон Ганиджанович</i> “КЕНГАШ” ЖУРНАЛИДА СИЁСИЙ, ДИНИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ	46-54
<i>Фарманова Гулнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ ХХ ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ Г.В.ГРИГОРЬЕВА И А.И.ТЕРЕНОЖКИНА).....	55-64

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	65-71
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> ONLAYN MOLIYAVIY XIZMATLARNING XUSUSIYATLARI	72-79
<i>Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич, Бабаназарова Севара Абдиназаровна</i> ИНСОН КАПИТАЛИ ТУШУНЧАСИННИГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА УНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ	80-90
<i>Norkochkarov Abdulaziz Ziyadullaevich</i> PRACTICAL ASPECTS OF CREATING COST ESTIMATE IN BUDGET ORGANIZATIONS	91-98
<i>Темиров Шоҳруҳжон Пўлатхўжа ўғли</i> КИЧИК БИЗНЕС РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ, ДАРАЖАЛАРИ ВА БАРҚАРОРЛИГИДА ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ (ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	99-108

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Raximova Dildora Abzalovna</i> GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI	109-114
---	---------

Искандаров Жаҳонғир Шарипович
ИНТУИЦИЯ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ 115-121

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI 122-128

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ
ХОДИСАСИННИГ ЎРНИ 129-137

Rasulova Gulbahor
AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 138-143

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li
КОГНИТИВ ЛИНГВИСТИКА ФАНИНИ ТАQQOSLASHNING UMUMIY TENDENSIYALARI 144-149

*Bobojonov Dilshod Jumaqul ugли, Halilova Shohista Muhammadi qizi, Umarova Maftunbonu
Umidjanovna, Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna, Gulnora Xolmurodova Sattorovna*
LINGUISTIC FEATURES OF THE MODERN NEWSPAPER LANGUAGE: ANALYSIS AND
RESEARCH 150-159

*Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna, Berdiyev Suhrob Sobirovich, Togaev Bobur Erkin ugли, Hafizov
Sarvar Boborajab ugли, Maxsumov Rustam Maxamadiyevich*
CHARACTERISTICS OF THE NEO-VICTORIAN NOVEL IN THE "FRENCH LIEUTENANT'S
WOMAN" BY JOHN FOWLES 160-166

Xolmuxamedov Baxtiyor Farxodovich
О'zbek tilida yaratilgan chappa (ters) lug'atlari haqida 167-176

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
БАЪЗИ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ИНТЕРНЕТ ТАРМОГИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР
ЭТИЛАДИГАН ТАЛОН-ТОРОЖ ЖИНОЯТЛАРИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК
МАСАЛАЛАРИ 177-187

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
MATNNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA 188-192

Xaydarov Azamjon Asqarovich
“OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI YO’NALISHI” TALABALARINI UMUMIY KIMYO KURSINI O’QITILISHDA
INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI 193-198

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
ADABIY TA'LIM TIZIMIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV 199-204

Gaynullaeva Yulduz Anvarovna
PROFESSIONAL AND AESTHETIC APPROACH TO TYPES OF WOMEN'S CLOTHING 205-210

Rasulova Gulbahor

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Iste'dodli yozuvchi Ayris Myordok asarlariga olimlar tomonidan qator munosabat bildirilgan. Aksariyat tadqiqotchilar uning badiiy mahorati, uslubi, voqelikni badiiy-falsafiy idrok etishiga katta e'tibor berishgan. Natijada Ayris Myordok ijodiga yondashuvlarning turli yo'sinlari shakllangan. Maqolada yozuvchi ijodiga ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: vrqelik, uslub, xayolot, tasavvur, aql, bilim, so'zshunoslik, ijodkor dunyosi, talanti, geniysi, insoniyligi.

Rasulova Gulbakhor

Tashkent Institute of Textile and Light Industry,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE WORK OF IRIS MURDOCH

Abstract. The works of the talented writer Iris Murdoch received a number of responses from scientists. Most researchers paid great attention to his artistic skill, style, and artistic and philosophical perception of reality. As a result, different approaches to the work of Iris Murdoch were formed. The article analyzes scientific and theoretical approaches to the writer's work.

Key words: personality, style, imagination, intelligence, knowledge, vocabulary, creative world, talent, genius, humanity.

Расулова Гулбаҳор

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности,
доктор философских наук (PhD) по филологическим наукам

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ТВОРЧЕСТВУ АЙРИСА МЁРДОКА

Аннотация. Произведения талантливой писательницы Айрис Мердок получили ряд откликов ученых. Большинство исследователей уделяли большое внимание его художественному мастерству, стилю, художественно-философскому восприятию действительности. В результате сформировались разные подходы к творчеству Айрис Мердок. В статье проанализированы научно-теоретические подходы к творчеству писателя.

Ключевые слова: личность, стиль, воображение, интеллект, знания, словарный запас, творческий мир, талант, гений, человечность.

Ma'lumki, yozuvchi voqelikni badiiy idrok etar ekan, uni o'ziga xos ko'radi va tushunadi. Aynan shu voqelikni boshqa odam boshqacha tasvirlaydi. Natijada bir xil voqelikka turlicha yondashuv yuzaga keladi. Bu erda birinchi o'rinda yozuvchining uslubi namoyon bo'lgani ko'zga tashlanadi. Zero, "Uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so'zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi – butun borlig'ini namoyon etuvchi hodisa, vosita" [1, 294-b.] hisoblanadi. Demak, yozuvchi o'z romanida tasvirlayotgan borliq, voqelik birinchi galda uning xayoloti, tasavvuri va o'zi mansub davr, jamiyat badiiy-estetik ideallaridan o'sib chiqadi. Bu esa uslub yozuvchi iste'dodi, poetik mahorati yuzaga chiqishini ta'minlovchi vosita ham ekanligi isbotlaydi. Lekin, eng muhimi, yozuvchi real borliqdan o'zi yaratayotgan badiiy asar uchun olgan voqelik, detal, obraz albatta o'zgarishlarga uchraydi. Ya'ni yozuvchi real borliqdan olgan materialni o'zining badiiy niyati asosida qayta ishlaydi. Natijada real borliqning biz ko'rgan jihatidan boshqacharoq ko'rinishi paydo bo'ladi. Shu erda badiiy shartlanganlik, badiiy til ifodasi, dispozitsiya va kompozitsiya, fabula va syujet, prototip va obraz(xarakter) kabi masalalar o'rtaga chiqadi.

Aslida adabiyotshunoslikda asarning badiiy xususiyatlari, jumladan, kompozitsiya, syujet, obraz, asar tili, yozuvchi uslubi kabi masalalar bo'yicha qadimdan bahs yuritib kelinadi. Platon badiiy asardagi kishiga ezgulik urug'ini ekadigan voqealarga diqqat qilish kerakligini ta'kidlagan bo'lsa [2], Aristotel asardagi fabula, syujet, xarakter, badiiy nutq masalalarini teranroq ifodalaydi [3, 352-B.]. Shuning uchun barcha davrlarda tadqiqotchilar yaratilgan asarda birinchi o'rinda badiiy xususiyatni aniqlashni maqsad qilishadi. Jumladan, Ayris Myordok romanlaridagi syujet, kompozitsiya, konflikt, obrazlar tizimi kabi badiylik masalalari ham ingliz, rus olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Qizig'i, bunda bir-biriga o'xshamagan yakuniy xulosalar yetarlicha topildi.

To'g'ri, bu haqda ishning kirish qismida ham ba'zi ma'lumotlar keltirildi. Yozuvchi ijodi haqidagi manbalarni o'rganish jarayonida jahon adabiyotshunosligida Ayris Myordok asarlari turlicha aspektlardan tadqiq etilgani aniqlandi. Xususan, Ayris Myordokning tarjimai holini yozgan va yozuvchining oilaviy do'sti bo'lgan Piter Konradning Ayris Myordok tarjimai holiga oid asari e'tiborga loyiq sanaladi [4, 3984-B.]. Mazkur kitob Ayris Myordok haqidagi eng ishonchli manbalardan biri sanaladi. Uning kirish qismida "For John Bayley and for Philippa Foot"(Jon Beyl va Filippa Futga bag'ishlanadi)deb yozilgan.

Ayris Myordok va uning turmush o'rtog'ini yaqindan bilgan hamda uzoq yillar ular bilan do'st, hamkor sifatida bo'lgan mualif yozuvchi asarlariga yuksak baho bergan. Ayniqsa, axloqiy-psixologik, diniy-mistik, ekzistensialistik qarashlari, muhabbatga platonik nuqtai nazar bilan yondashgani haqidagi ma'lumotlar ilmiy va hayotiy dalillar bilan asoslangan. Bu esa Ayris Myordok shaxs sifatida serqirra va murakkab ekanligini anglatadi. Piter Konrad Ayris Myordok asarlari va uning biografiyasiga oid ma'lumotlar haqida quyidagilarni yozadi:

Iris's early memories were of swimming, singing and being sung to, of animals, and of wonderment at the workings of the adult world. She sat at the age of about seven under the table while her parents played bridge – either reading a favourite childhood book or, as she put it, 'simply sitting in quietness' and listening in astonishment to the altercations and mutual reproaches of the adults at the end of each rubber. Wonderment, imaginative identification with a fantastic range of creature-kind, capacity to feel strong emotions, secretiveness, and also Irishness: these are recurrent and related themes within her story [6, 34-b.]. (Ayrisning ilk xotiralari suzish, qo'shiq aytish va ota-onalariga qo'shiq ayttirish, hayvon va katta olamining farqli tomonlarini ko'rib hayron qolishi kabilardan iborat bo'lgan. Tahminam yetti yoshida stol tagiga kirib olgancha ota-onasi bilan o'ynagani, sevimli kitobini o'qish yoki shunchaki jim o'tirib janjal va tortishuvlarni hayrat bilan eshitardi. Har bir janjalning oxirida kattalarning xayolida

o'ziga xos kengliklarga egaligi, yashirin his-tuyg'u, his etish qobiliyati kabilarga boyligini, ularning takrorlanishi barchasi uning asarlariga tegishli mavzu edi). Ko'rindiki, Peter Konrad yozuvchi asarlaridagi mavzular real hayotdan olingen va ular realistik asosga ega ekanligini ilgari surgan. Lekin bu fikrni yozuvchining barcha asarlariga birdek tegishli deyish xato bo'ladi. Chunki diniy-mistik yoki fantastik asarlaridagi eytakchi voqealar sof badiiy to'qima hisoblanadi.

Maria Antonasio esa "Insonni tasvirlash: Ayris Myordokning axloqiy fikri" nomli "asarida (My contention is that Murdoch's realism can best be understood as a form of "reflexive" or "hermeneutical realism." This means that she will be seeking a criterion of valid moral knowledge in and through the reflexive medium of consciousness itself.) "Mening fikrimcha, Myordok asarlaridagi realizmni "refleksiv" yoki "germenevtik realizm" sifatida yaxshiroq tushunish mumkin. Bu shuni anglatadiki, u refleks orqali haqiqiy axloqiy bilim mezonlarini izlaydi" [6, 116-b.], deb qayd etadi. Adabiyotshunosning mazkur xulosasini Ayris Myordok ijodining dastlabki paytidagi romanlarda tasvirlangan shaxslarning hayotiy muammo va masalalarga shartli ravishda yondashuviga nisbatan ham qo'llash mumkin. Masalan, Dora ("Qo'ng'iroq")ning o'z hayotidagi turli munosabat va voqelikka jiddiy yondashmasdan, o'zini bu jamiyat yoki oilaning ortiqcha odami deb bilishini uning psixologiyasidagi o'zgarish, aniqrog'i, shartli refleksiya hodisasi bilan bog'lash mumkin. Yoki shu romandagi turli voqealarni detallar talqini (hatto, odamlar Doraning eri yoniga qaytishini ham boshqa talqin etishganini eslash kerak) zamirida yozuvchining germenevtik realizmiga yaqinligi e'tirof etish kerak. Lekin shu erda ikkinchi muammo kelib chiqadi. Ayris Myordok Doraning o'z oilasi, aniqrog'i, erining oldiga qaytishi, bungacha bo'lgan qator bosimlar, ruhiy zo'riqish, ikkilanish kabi holat va vaziyatlarni bunday talqin imkonini yo'qdek tuyuladi. Shuning uchun olim ilgari surgan mazkur yondashuv bilan kelishib bo'lmaydi.

Vaholanki, "asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik kompozitsiya deb ataladi. ... Asar kompozitsiyasi, dastavval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan belgilanadi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik tushunchadir" [7, 124-b]. Shundan kelib chiqsak, Ayris Myordok "Qo'ng'iroq" romanida syujetdagi turli talqin va tahlillar yordamida o'zining yetakchi g'oyaviy-estetik qarashlarini ifodalamoqchi bo'lgan. Natijada roman uslub jihatdan realizm talabiga to'la mos tushgan.

Ayris Myordok haqidagi yana bir dissertatsiya muallifi Mariya Altrof Ayris Myordok ijodida dunyoviy badiiy obraz va obrazlilikning falsafiy qat'iy yaratilishi masalasi tadqiq etilgan [8, 160-b.]. Bunda tadqiqotchi yozuvchining badiiy obrazli tafakkur tarzi, real voqelikni aniq badiiy maqsad yo'lida botiniy olamida qayta yaratishi hamda badiiy obraz sifatida qog'ozga tushurish jarayonlariga jiddiy yondashgan.

E.A.Osipenko "Ayris Myordokning 50-80 yillardagi romanlarida o'zin badiiyati tamoyillari"ni tadqiq etar ekan [9, 20-b.], dastlab "o'zin badiiyati" tushunchasiga izoh berishdan boshlaydi. So'ngra uning evolyutsiyasi, Ayris Myordok romanlaridagi so'z o'zinlari, kompozitsiya qurishdagi o'zin usullari tamoyillari, romanda voqealarni sahnalaشتirish tiplari, asar strukturasidagi ichki va tashqi o'zin tiplari haqida fikr yuritadi. "O'zin- bu Ayris Myordok romanlarida shakl hosil qiluvchi muhim g'oyaviy-falsafiy omil bo'lib, yozuvchi shu yo'l bilan o'z niyatini amalga oshiradi", degan to'xtamga keladi. Biz ham romanlar tadqiqida ba'zi o'rnlarda voqealarning oson va qulay rivojlantirgan qahramonlarni atayin boshqa joylarga yo'naltirish va shu orqali syujet tarkibiga qo'shimcha harakat maydonini jalb etish orqali romandagi kompozitsiyani kengaytirgani hamda shu yo'l bilan qahramon idrokida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiylar g'oyanining "pishib etilishini" kutganini kuzattdik.

Qabardin-Bolqor davlat universiteti tadqiqotchisi L.K.Bayramqulova Ayris Myordok asarlaridagi intermatnlilik muammosini Shekspir asarlari bilan yaxlitlikda o'rgangan [10, 24 b.]. Bunda har ikki yozuvchi matnlarining o'zaro yaxlitligi, ingliz badiiy tafakkuridagi badiiylik konstruksiyalarining Shekspirdan Myordok asarlarida qochgani hamda bu ikki ijodkor yaratgan badiiy matn mohiyatini bir tizim sifatida ochib beradi. Ayris Myordokning uchta romanidagi syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, yetakchi uslubiy jihatlar tahlili yordamida Shekspir va Myordok ijodidagi g'oyaviy-estetik va tipologik yaqinlik qonuniyatlari tadqiq etilgan. Shekspirdagi teatrlashgan badiiyatning Ayris Myordok romanlaridagi ifodasi, sahna asarlarini qayta mazmun kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

Boshqirdiston davlat universitetida Ayris Myordokning o'tgan asr elliginchi yillarida yaratgan romanlari badiiyati jiddiy o'rganilgan [11, 161-b.]. Jumladan, Anna Nikolaevna Nikiforova yozuvchining falsafasiga bo'lgan qiziqishlari uning ilk romanlari badiiyatini belgilashi, aynan, ekzistensializmning ta'sirini to'g'ri ta'kidlagan. Bunda yozuvchining "Sartr: romantik-ratsionalist" (1953) asarini alohida tilga oladi. Haqiqatdan ham, "Tuzoqda" (1954) nomli romanida personaj oldida turgan ikkita hayotiy yo'l va undan qay birini tanlash muammosi badiiy ifodasini topgan. Olima ta'kidlashicha, keyinroq Myordok Platon va Immanuel Kant g'oyalariga qiziqib, ularni o'z asarlarida mazmuniga singdirib yuboradi. Ilk romanlarida XX asr o'rtalarida ma'naviy inqirozga uchragan odam qiyofasining umumiylarida ochib berishi, qahramonlar hamda romanlar syujetini ham Sartr, Platon va Kant qarashlari ta'sirida shakllantirilgani romanning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o'rnnini baholashda asosiy mezon vazifasini o'taydi.

Ayniqsa, Kantning go'zallikni anglash, sevgi va ezgulik konsepsiyalari "Sehrgardan qochish" (1956), "Qumdag'i qasr" (1957) romanlarida ozod odam ezgulik, muhabbat tushunchalarini qanday anglashi misolida real vogelikda tasvirlaydi. Bunda u Platon va Kant g'oyalarini qayta talqin etar ekan liberallik va axloq masalasida shaxsiy pozitsiyasini aniq ko'rsatadi. Natijada ishqiy sarguzasht ma'nosidagi roman janri badiiy falsafiy roman darajasiga o'sib chiqadi.

"Myordok insonni olamda yolg'iz va zaif ekanligini qayd etadi" — deb yozadi A.N.Nikiforova va roman dekantlikdagi o'limni badiiylashtirish motivini olib kiradi. Anetta Kokeyn o'z tanasini ajoyib mexanizm, o'zini esa chiroyli o'lik sifatida qabul qiladi. O'z tanasi (mayit) bilan faxrlanish amalga oshmagan o'z-o'zini o'ldirish sahnasi bilan qarama-qarshi munosabatga kirishadi. Bu erda qahramonning achchiq qismati bo'lsa-da, qisman ironiya ham ko'zga tashlanadi" [11, 15-b.]. Darhaqiqat tilga olingan qahramon o'z hayotidan norizo holda, mutlaq yetuklikni, yanada yaxshiroq jamiyatda yashashga intiladi, ammo davr, jamiyat mukammal emas edi. Buni anglamasdan yoki anglasa ham o'zni jamiyatdan yuqori qo'yishi ostida tuzum ustidan kulish ko'zga tashlanadi. Hatto romanning nomi ("Sehrgarlikdan qochish")dagi sehrgarlik ham aslida ramziy bo'lib, u real hayotni anglatgan. Aynan real muhit qahramonlarni qiyin vaziyatlarga soladi, ularga o'zlarini intilgan va orzu qilgan muhitni emas, butunlay boshqasini beradi. Natijada mavjudlikni, o'zlarini yashaydigan shu reallikni dahshatli tush sifatida anglagan qahramon uyg'onmoqchi bo'ladi. Shu yerda qahramon qalbida isyonkorlik, jamiyat axloqi mezonlari bilan chiqisha olmaslik birinchi planga chiqadi. Bu xuddi I.Kant davridagi odamlarning o'zgarishlar va yangiliklarni qabul qilishga qiyalgani yoki modernistik tushunchani anglamagan inglizlar holatiga o'xshaydi. Lekin Ayris Myordok bu erda XX asr o'rtalaridagi asabiy odamlar tasvirini beradi. Demak, jamiyatdagi yangi inson konsepsiysi barcha davrlarda ham konservator kishilarga qiyinchilik tug'dirgan. Yangi tartib qoidalarni qabul qilmagan kishilarni jamiyat chetga surib tashlaydi. Ular boshiga ketma-ket fojialar yog'iladi. Romanda ana shu voqealar badiiy ifoda etilgan.

Yuliya Lokshina ham Ayris Myordok romanlaridagi gotik an'ana muammosini Djon Faulz romanlari bilan birgalikda tadqiq etgan [12, 145-b.]. Dissertatsiyada tadqiqotchi dastlab ikkinchi jahon urushidan keyingi Angliya adabiyoti va gotik romanlar kanoni muammosini XIX-XX asr an'anaviy gotik roman an'anasi, yozuvchilarning modernizm va postmodernizm o'rtasidagi o'ziga xosligini pozitsiyasi misolida olib berishga intilgan. Ikkinci bobda esa yozuvchilar romanlari misolida gotik romanda xronotop muammosiga aniqlik kiritishga harakat qilgan. Bobning birinchi faslida xronotopning janriy ahamiyatiga haqida bahsga kirishadi. Shu bobning ikkinchi faslida esa gotik romandagi makon psixologik eksperiment maydoni sifatida olingan. Ikkinci bobning uchinchi faslida esa "uy - qamoq" konseptiga ko'ra yozuvchilar romanlari tahlil etilgan. Ikkinci bobning to'rtinchi faslda esa makon sirli bilimlar saqlovchisi sifatida, uy fantastik va real olam chegarasi kabilar haqida fikr yuritgan.

Ayniqsa, uchinchi bobda kutish vaqt, yovuzlik tasviri, yovuzlikning asosiy qirralari haqidagi fikrlari badiiy roman orqali turli estetik kategoriyalarni ifodalashda yozuvchilar turgan yo'llarning turlicha ekanligi olib berilgan. Lokshina tadqiqotining to'rtinchi bobida gotik motivlarning postmodernistik talqini haqida fikr yuritgan bo'lib, motivning syujet tashkil etuvchi element sifatidagi vazifasi, leytmotivlar tizimi haqida shaxsiy kuzatishlarni ilgari suradi. Bunda qo'rquv va uning tabiatiga hamda personajlarning qo'rquv paytidagi ruhiy tasvirida yozuvchilar tutgan yo'l ilmiy tadqiq etilgan. Tadqiqotchi ilmiy kuzatishlarini yakunlashda quyidagi xulosani keltirgan: "Keng ma'nodagi an'ana va, jumladan, Ayris Myordok va Djon Faulz ijodining tarkibiy qismi bo'lgan gotik roman an'anasi bir vaqtning o'zida voqelikka ironik munosabat predmeti ham hisoblanadi. Ommaviy adabiyotning janri sifatida gotikaning ko'plab elementlari rivoya qilish materialiga yechimi yo'q intellektual boshqotirma tamoyilida singdirib yuborilgan" [12. 161-b.]. Darhaqiqat. Ayris Myordokning ilk romanlarida hayotda o'z-o'rnini topish muammosi yechimi topilmas boshqotirmadek bayon etilgan.

Ayris Myordokning roman va falsafiy asarlarini farqlash haqidagi mulohazasida falsafada ilmiy ong yetakchiligi, badiiy ijodda esa badiiy tarzda fikrlash ustunligi to'g'ri asoslangan. Bu erda yozuvchi nutqning funksional vazifasidan kelib chiqib yondashgan. Shunda biri ilmiy uslubda, ikkinchi esa badiiy uslubda yoritilishi oydinlashadi. Zero, "San'atkor yaratadigan obraz oddiy in'ikoslardan farqli o'laroq, voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettiradi" [13, 108-b.]. Lekin badiiy asar ham ijtimoiy ong mahsuli ekanligi, unda badiiy falsafa mavjudligi yozuvchi faoliyatining o'zaro yaxlitligini ta'minlaydi. Shu ma'noda yozuvchi asar yaratayotganda real borliq ustida badiiy mushohada yuritadi. Agar ana shu badiyligi bo'limganda edi, uni hayot muammolari haqida fikr yuritgan faylasuf deyish mumkin bo'lar edi.

Aslida ham Ayris Myordok yaratgan romanlar o'zi yashagan davr va jamiyatning obrazi sanaladi. Binobarin, "Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir" [14, 90-b.]. Shunday ekan uni badiiy tafakkur mahsuli deyish mumkin. Shunday bo'lsa-da, Ayris Myordok romanlaridagi personajlar xarakteridagi qat'iyat etishmasligi, tez o'zgaruvchanlik kabi xislatlar yozuvchida ham uchrashi manbalarda qayd etilgan.

Xulosa sifatida aytish joizki. tadqiqotchining fikricha, Myordok o'z romanlarida o'quvchini o'ylantiradi. Biroq, ba'zida muallifning fikri, Dippl ta'kidlaganidek, juda uzun bo'ladi. Diplning so'zlariga ko'ra, yozuvchi nasrining o'ziga xos xususiyati shundaki, u hech qachon ideal chizmaydi, aksincha, asosan haqiqiy odamlarni va ular qilgan xatolarni, shuningdek, qahramonlarning tasodifiy irodasiga odamlarning bog'liqligini ko'rsatadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 284-b.
2. Aflatun. Davlat. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2011. -
3. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2012. – 352 b.
4. Conradi P. J.Iris Murdoch: A Life: The Authorized Biography — London: HarperCollins, 1998. – 772 p. <https://litres.ru>; Conradi P. J. Iris Murdoch: The Saint and the Artist. N. Y.: St. Martin's Press, 1986. – 384 p.
5. Conradi P. J.Iris Murdoch: A Life: The Authorized Biography — London: HarperCollins, 1998. – p. 34. <https://litres.ru>;
6. Maria Antonaccio. Picturing the human : the moral thought of Iris Murdoch. Published by Oxford University Press. 2000. – 116 p (244 p)
7. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent. O'qituvchi, 2005. – B.124 (272 b)
8. Marije Altorf. Iris Murdoch and the art of imagination, imaginative philosophy as response to secularism. The disssertacionthe degree of doctor of philosophy. Centre for the study of literature, theology and the arts university of Glasgow. July 2004. – 160 p.
9. Osipenko E.A.Osipenko Prinsipy igrovoy poetiki v romanax Ayris Myordok v 50-80-godov. Avtoreferat dissert... kand.fil.nauk. – Sankt Peterburg, 2004. – 20 s.
10. Nikiforova A.N. Poetika romanov Ayris Myordok 1950-x godov. Avtoreferat dissert... kand.fil.nauk. – Ufa, 2007. – 24 s.
11. Lokshina YU.V. Traditsii goticheskogo romana v tvorchestve Ayris Myordok i DJon Faulza. Dissert ... kand.filol. nauk. Moskva: 2015. – 161 str. <http://dissercat.com>.
12. Lokshina YU.V. Traditsii goticheskogo romanav tvorchestve Ayris Myordok i DJon Faulza. Dissert ... kand.filol. nauk. Moskva: 2015. – S.145 str..
13. Kollektiv. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. Birinchi tom.– Toshkent: Fan, 1978. – B.108.
14. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018 - B.90.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o S/7(3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).